

**INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGANUVCHI BOLALARDA
OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Yulchiyeva Dilfuza Zafarjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya . Ushbu maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rghanuvchi bolalarda og'zaki nutq (speaking) ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning zamонавији usullari yoritiladi. Bolalar bilan ishslashda qiziqarli va interaktiv yondashuvlar, ayniqsa, muloqotga asoslangan topshiriqlar, dramatik o'yinlar, hikoya aytish, vizual vositalardan foydalanish, va til muhitini yaratish orqali nutqiy faoliyatni rag'batlantirish usullari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot Toshkentdagi uchta til markazida o'tkazilgan dars kuzatuvlari va o'qituvchilar bilan suhbatlar orqali olib borildi. Maqolada amaliy tavsiyalar bilan bir qatorda, bu metodlarning ilmiy asoslari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rghanuvchi bolalar, interaktiv metodlar, til o'rghanish, kommunikativ yondashuv, o'yinli darslar

Abstract. This article explores modern approaches to developing and enhancing speaking skills in children learning English as a foreign language. It highlights the importance of engaging and interactive methods in working with young learners, particularly through communication-based tasks, drama activities, storytelling, the use of visual aids, and the creation of a language-rich environment to stimulate oral language production. The study is based on classroom observations and interviews with teachers conducted at three language centers in Tashkent. Alongside practical recommendations, the article also examines the theoretical foundations of these methods.

Keywords: speaking skills, children learning English as a foreign language, interactive methods, language learning, communicative approach, game-based lessons

Kirish

XXI asrda ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya tili sifatidagi ahamiyati ortib borar ekan, bu tilni bolalikdan boshlab samarali o'rgatish dolzarb muammoga aylandi. Xususan, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rghanuvchi bolalarda og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish til kompetensiyasining markaziy elementi hisoblanadi. Bu yoshdagи o'quvchilar tilni gramatik jihatdan o'zlashtirishga emas, balki uni real kommunikatsion vaziyatlarda qo'llashga intiladi (Cameron, 2001).

Ko'plab maktab va til markazlarida hali-hanuz passiv yondashuvlar, ya'ni ko'proq yozma va tinglab tushunishga asoslangan metodlar ustunlik qiladi. Natijada, bolalarda

so‘zlashishga nisbatan qo‘rquv, ishonchsizlik, va nutqiy faollikning pastligi kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar tilni o‘rganish jarayoni bolalarning yoshiga mos, interaktiv va o‘yin elementlari bilan boyitilgan bo‘lsa, ularning og‘zaki nutq ko‘nikmasi samarali rivojlanadi (Pinter, 2017; Wright et al., 2006).

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning zamonaviy, sinovdan o‘tgan usullarini aniqlash va ta’lim amaliyotida tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot metodikasi

Ishtirokchilar

Tadqiqot Toshkent shahridagi uchta til markazida olib borildi. Har bir markazda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashdi. Umumiy hisobda 45 nafar 6-10 yosh oralig‘idagi o‘quvchi va 4 nafar ingliz tili o‘qituvchisi ishtirok etdi. Ishtirokchilar bolalar uchun maxsus dars dasturiga muvofiq haftasiga 2-3 marotaba darslarda qatnashadigan guruhlardan tanlab olindi.

Ma’lumot yig‘ish usullari

Dars kuzatuvlari: Har bir guruhda 3 darsdan kuzatildi va audio-video yozuvlar orqali tahlil qilindi.

Yarim strukturaviy suhbatlar: O‘qituvchilar bilan og‘zaki nutq ko‘nikmasini qanday rivojlantirishlari, qanday metodlardan foydalanishlari bo‘yicha suhbatlar olib borildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish

Olingan ma’lumotlar tematik tahlil usuli (Braun & Clarke, 2006) yordamida analiz qilindi. Asosiy mavzular sifatida quyidagilar aniqlandi: bolalarning ishtiroki, til muhitining yaratilishi, interaktiv metodlar, pedagogik strategiyalar.

Natijalar

- Muloqotga asoslangan topshiriqlar til faolligini oshiradi

Bolalar ishtirok etgan darslarda "Find someone who...", "Guess what I have", va "Describe and draw" kabi topshiriqlar ularning o‘zaro ingliz tilida muloqot qilishini kuchaytirgani aniqlandi. Bu topshiriqlar o‘quvchilarda tabiiy ravishda savol-javob qilish, so‘z boyligini amalda qo‘llash, va talaffuz ustida ishslash imkonini yaratdi (Richards, 2006).

- O‘yinlar va rolli mashg‘ulotlar nutqni erkinlashtiradi

Darslarda o‘tkazilgan rolli o‘yinlar, masalan "Shopkeeper and Customer", "At the Doctor’s" bolalarning ijodiy fikrlashini faollashtirib, ularga nutqiy kontekstda tilni qo‘llash imkonini berdi. O‘yin davomida bolalar o‘zlariga berilgan rolda harakat qilish orqali gap tuzish va mos lug‘at tanlashga odatlandi (Wright et al., 2006).

- Hikoya aytish va vizual resurslardan foydalanish nutqni mustahkamlaydi



Vizual hikoya kartalari, animatsion videolar, piktogrammalar yordamida darsga kirishish o'quvchilarda kontekstni yaxshiroq tushunishga, keyin esa fikr bildirishga yordam berdi. Shuningdek, "story retelling" vazifalari orqali bolalar o'z so'z boyligini mustaqil ishlatishga intildi (Cameron, 2001).

- O'qituvchilarning yondashuvi muhim omil hisoblanadi

O'qituvchilar bolaning yoshiga mos til darajasini tanlash, savollar berish, tilni modellashtirish orqali og'zaki faoliyatni faollashtirdilar. Shuningdek, "gentle correction" usulida xatolarni tuzatish bolalarning nutqiy ishonchini pasaytirmadi (Harmer, 2007).

Muhokama

Olingen natijalar ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi bolalar uchun og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv va interaktiv o'yinlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Vygotsky (1978) tomonidan ilgari surilgan yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bolalar katta yoshli yoki tengdoshlari bilan muloqot jarayonida yangi til birliklarini o'rganadi. Shuning uchun, darsda o'quvchi-o'quvchi va o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi real muloqotni rag'batlantirish ayni muddaodir.

Bolalarda til o'rganish asosan kontekst orqali kechadi, va bu holatda dramatik o'yinlar, hikoya aytish va interaktiv mashg'ulotlar til muhitini sun'iy emas, balki real qilishga yordam beradi (Moon, 2000). Bu yondashuvlardan bolalarning shaxsiy faolligini oshiribgina qolmay, balki mustaqil ravishda tilni qo'llashga bo'lgan motivatsiyani ham kuchaytiradi.

Xulosa

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida interaktiv, muloqotga asoslangan metodlar, o'yinlar, rolli mashg'ulotlar, hikoyaviy topshiriqlar, va vizual kontekstlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining motivatsion va psixologik qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, tilga bo'lgan ishonchni shakllantiruvchi uslubda tuzilgan darslar orqali bolalar tabiiy va samarali tarzda ingliz tilida so'zlashishni o'rganadi. Kelgisida bu metodlarni davlat muktablariga moslashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va metodik qo'llanmalar yaratish orqali yanada kengroq ta'lim tizimiga joriy etish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. Qualitative Research in Psychology , 3(2), 77–101.
2. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners . Cambridge University Press.



3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Longman.
4. Moon, J. (2000). Children Learning English . Macmillan Education.
5. Pinter, A. (2017). Teaching Young Language Learners (2nd ed.). Oxford University Press.
6. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today . Cambridge University Press.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes . Harvard University Press.
8. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). Games for Language Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.

